



THE RULE OF THE AFRIGHID DYNASTY AND ISSUES RELATED TO THE STUDY OF THIS PERIOD

Shakhodat Matyakubova

Lecturer

Urgench Ranch Technological University

Urgench, Uzbekistan

E-mail: matyaqubovashaxodat@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: Afrighid dynasty, Khwarezm, Vazamar, Afrigh, Sassanids, Hephthalites, numismatics, archaeology, state policy, coins, list of rulers.

Received: 25.02.25

Accepted: 27.02.25

Published: 01.03.25

Abstract: This article explores the origins of the Afrighid dynasty, their reign period, state policies, and findings from numismatic and archaeological sources. Additionally, the relationships between the Afrighids and the Sassanids, Hephthalites, and the Arab Caliphate are discussed. The study highlights the importance of numismatic evidence in understanding the history of the Afrighid dynasty, as well as in determining their ruling period and state boundaries.

AFRIG'IYLAR SULOLASI HUKMRONLIGI VA BU DAVR TADQIQOTI BILAN BOG'LIQ MASALALAR

Shahodat Matyakubova

o'qituvchi

Urganch Ranch texnologiya universiteti,

Urganch, O'zbekiston

E-mail: matyaqubovashaxodat@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar. Afrig'iylar sulolasi, Xorazm, Vazamar, Afrig', Sosoniylar, Xioniylar, numizmatika, arxeologiya, davlat siyosati, tangalar, shohlar ro'yxati.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Afrig'iylar sulolasining kelib chiqishi, ularning hukmronlik davri, davlat siyosati, numizmatik dalillar va arxeologik topilmalar asosida tadqiq etiladi. Shuningdek, Afrig'iylar sulolasi va Sosoniylar, Xioniylar, Arab xalifaligi o'rtasidagi munosabatlar ham yoritiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Afrig'iylar sulolasi tarixini tushunishda numizmatik manbalar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning hukmronlik davri va davlat

chegaralarini aniqlashda asosiy dalil bo'lib xizmat qiladi.

ПРАВЛЕНИЕ ДИНАСТИИ АФРИГИДОВ И ВОПРОСЫ, СВЯЗАННЫЕ С ИССЛЕДОВАНИЕМ ДАННОГО ПЕРИОДА

Шаходат Матякубова

Преподаватель

Ургенчский технологический университет РАНЧ

Ургенч, Узбекистан

E-mail: matyaqubovashaxodat@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Династия Афригидов, Хорезм, Вазамар, Африг, Сасаниды, Хиониты, нумизматика, археология, государственная политика, монеты, список царей.

Аннотация: В данной статье рассматриваются происхождение династии Афригидов, период их правления, государственная политика, а также данные нумизматики и археологических находок. Особое внимание уделяется отношениям Афригидов с Сасанидами, Хионитами и Арабским халифатом. Исследование показывает, что нумизматические источники имеют ключевое значение для понимания истории Афригидов, а также помогают определить их хронологию и границы государства.

Kirish. Afrig'iylar sulolasi Xorazm tarixida muhim o'rin tutgan bo'lib, bu davr O'rta Osiyoda siyosiy barqarorlik, iqtisodiy va madaniy rivojlanish jarayonlari bilan ajralib turadi. Tarixiy manbalar Afrig'iylar sulolasining III asr oxiri va IV asr boshlarida uzoq davom etgan taxt uchun kurash natijasida shakllanganligini ko'rsatadi. Xorazmning ilk o'rta asrlardagi siyosiy tarixi yozma manbalar, numizmatik topilmalar va arxeologik dalillar orqali o'rganilgan bo'lsa-da, sulolaning kelib chiqishi, hukmronlik davri va davlat siyosati borasida turli nazariyalar mavjud.

Adabiyotlar tahlili. Afrig'iylar sulolasi va Xorazmning ilk o'rta asrlar tarixi bo'yicha tadqiqotlar yozma manbalar, numizmatik tahlillar va arxeologik topilmalarga asoslangan. Bu borada Abu Rayhon Beruniy Xorazmshohlar sulolasining kelib chiqishi va davlat siyosatini yoritgan bo'lsa, E.V.Rtveladze, S.P.Tolstov va V.I.Vaynberg numizmatik va arxeologik tadqiqotlar asosida Afrig'iylar sulolasining hukmronligi, shohlarning ketma-ketligi va iqtisodiy taraqqiyot jarayonlarini tahlil qilishgan.

Metodologik yondashuvlar. Asosiy metodlardan biri tarixiy-solishtirma tahlil bo'lib, yozma manbalar va moddiy dalillar taqqoslanib, ularning ishonchliligi aniqlanadi. Numizmatik tadqiqotlar orqali sulola hukmdorlariga oid tangalar tahlil qilinib, ularning siyosiy va iqtisodiy ahamiyati baholanadi. Arxeologik tadqiqotlar esa Xorazm vohasidan topilgan yodgorliklar asosida sulolaning hukmronligi haqida muhim xulosalar chiqarishga yordam beradi.

Tahlil. Oʻrta Osiyo tarixida muhim oʻrin tutgan Kushonlar imperiyasining milodiy III asrga kelib zaiflasha boshlashi va milodiy IV asrdan hududga bostirib kirgan koʻchmanchi qabilalarning hujumi natijasida antik davr taraqqiyot bosqichi inqirozga uchrab, ilk oʻrta asrlarga xos oʻziga xos ijtimoiy - iqtisodiy sharoit vujudga kelgan. Eron hududida Sosoniylar sulolasining oʻrnatilishi va ularning sharqqa qarab yurishlari Kushonlar imperiyasini zaiflashtirgan, shu bilan bir qatorda yozma manbalardagi maʼlumotlarda Xorazm vohasiga ham hujum qilganliklari haqida maʼlumotlar saqlanib qolgan. Bu Suriyaning “Arbella xronikasi” asarida sosoniy shohlari Artashir (227-241 yy.) va Shopur I ning (241-271yy.) xorazmliklar bilan boʻlgan janglari bayon qilingan [1, c. 91]. Ardashr Balx, Marv va Xorazmni bosib olgan, Shopur I esa, faqat xorazmliklar bilan jang qilganligi haqida yozib qoldirilgan. Bu yozma manbalarni tadqiq qilgan V.B.Xenning Tuproqqaʼa yodgorligi aynan sosoniylar hujumi davrida vayron boʻlgan deb hisoblaydi. Lekin bu fikr arxeologik tadqiqotlar natijasida oʻz isbotini topmagan. At-Tabariyning maʼlumot berishicha, Ardasherning hukmronligi Xorazmda uzoq davom etmagan. V.I.Vaynberg Xorazm vohasidan topilgan tangalarning tahlili natijasida bu fikrni asoslagan.

Milodiy III asrning oxirlarida Xorazm sosoniylarga maʼlum bir vaqt qaram boʻlgan boʻlishi mumkin deb koʻrsatadi [2, C.97].

Bu fikrni Vazamar (Afrigʻ) hukmronligi davriga oid baʼzi bir topilmalar, yaʼni tangalar ikonografiyasining oʻxshashligi va yodgorliklardan sosoniylarning tangalarining topilishi bilan asoslaydi.

Tadqiqotchilar fikricha, Shopur I xorazmliklar bilan boʻlgan jangda yengilgan boʻlishi mumkin deb koʻrsatadilar. Shopur I ning gʻalabalari haqida 262 yilda yozilgan Zardusht Kabasida ham Sosoniylarning chegaralari Kesh, Sugʻd, Shoshgacha borganligi yozib qoldirilgan. Bu davrda Xorazm davlatida tushkunlik davri boʻlib, bundan sosoniylar foydalanishga intilgan boʻlishlari mumkin. Arxeologik maʼlumotlar ham sosoniylarning Xorazm ustidan uzoq vaqt hukmron boʻlganligi asoslamaydi. Xorazm vohasidagi shu davrga oid arxeologik yodgorliklardan topilgan tangalarning aksariati ham soʻnggi kushon xukmdorlari Vasudeva va Kanishka IIIning tangalari boʻlgan. III asrning oxirlari IV asrning boshlarida Xorazm davlatida siyosiy barqarorlik hukmron boʻlgan. Davlat ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan taraqqiy qilganligini podsho Afrigʻ nomi bilan bogʻlaydilar.

Shu davrga oid Vazamar shoh ismi yozilgan koʻplab tangalar topilgan. Vazamar Abu Rayxon Beruniy asarida Afrigʻ deb tilga olingan va uning Kayxisravlar sulolasidan boʻlganligi taʼqiddanib, oʻziga al-Fir qasrini Iskandar erasidan 616 yilda qurganligi va uning avlodlari shu sanadan boshlab, yil hisobini olib borganlar deb koʻrsatadi [3, C.94].

Abu Rayxon Beruniy asaridagi maʼlumotlar akademik E.V.Rtveladze tomonidan tahlil qilinib quyidagicha xulosalar berilgan : Birinchidan, Abu Rayxon Beruniy asarida “va nihoyat

Afrig' hukmron bo'ldi" deb yozib qoldirgan so'zi, Xorazm davlatida hokimiyat uchun jang uzoq davom etganligi va taxt uchun kurashda Kayxisrav avlodidan bo'lgan Afrig' g'alaba qozongan deb tushunishimiz mumkin. Ikkinchidan, Abu Rayhon Beruniy asarida Afrig'ning qachon taxtni egallaganligi haqida yozib qoldirilmagan, balki unda al-Fir qal'asini qurgan vaqti haqida ma'lumot berilgan. Iskandar erasining mil.avv. 312 yildan boshlanishini e'tiborga oladigan bo'lsak, Afrig' saroyi milodiy 304 yilda bunyod etilgan degan xulosa kelib chiqadi.

Lekin keyingi davr tadqiqotlarida bu 305 yil ekanligini asoslanmoqda. Shundan kelib chiqib biz ham shu sanadan foydalanamiz. Afrig' o'z navbatida hokimiyatni egallagandan keyin o'ziga saroy qurishni boshlagan.

S.P.Tolstov tomonidan Rossiyadagi Davlat Ermitajda saqlanayotgan kamyob tangalardan birida Afrig' so'zini o'qigan [5, C.191-192]. U " 'pryk " tarzda o'qigan. Lingvist V.A.Livshich bu tangadagi yozuvni boshqacha "Bisarvar" (bwrsr) tarzda o'qigan [6, C.116] . Bu tanganing zarb qilingan vaqti bilan Abu Rayhon Beruniyda berilgan Afrig'ning saroyini qurgan vaqti bir-biriga to'g'ri kelgan. B.I.Vaynberg ham bu tanganing sanasini III asrning oxiri IV asrning boshlari deb ko'rsatgan. Shu tariqa XX asrning oxirlarida olib borilgan tadqiqotlar natijasida Afrig' nomi tangalardan qayd qilinmagan deb hisoblangan. E.V.Rtveladze "Vazamar" ismi Afrig'ning hukmdor bo'lgach, qo'yilgan ism ham bo'lishi mumkin degan g'oyani ilgari surgan. Afrig' xukmdorning asl ismi bo'lib, u taxtni egallagach, unga "Vazamar" deb ism qo'yishgan bo'lish ehtimoli bor. Xorazm davlatidagi inqrozdin keyin hokimiyatni birlashtirgan hukmdor yozma manba bo'yicha Afrig' va arxeologik manba bo'yicha Vazamar bo'lgan. Shu sababdan Xorazm davlatining ilk o'rta asrlardagi dastlabki sulola vakillari vazamarlar yoki afrig'iylar sulolasi deb atalgan.

Afrig' Xorazm davlatida uzoq vaqt taxt uchun kurash olib borgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida deyarli 100 yil davomida hududda tushkin davri bo'lgan. II asrning o'rtalarida xududdagi tushkunlikdan foydalangan sosoniy shohlari ham Xorazm vohasini egallashga harakat qilgan bo'lishlari mumkin. Afrig' davlatni birlashtirish uchun o'z nomidan tangalarni zarb qilgan. Bu tangalar Vasudeva va Kanishka III tangalariga o'xshash bo'lib, o'zlarining sulolaviy tamg'asini qo'ygan.

Bu tamg'a Artava sulolasi hukmronligiga qadar, ya'ni tangalardagi tamg'a o'zgarguncha davom etgan. Lekin tangalardagi titul o'zgarimasdan qolgan. U oromiy tilida WZM'R MLK' tarzda berilgan. E.V.Rtveladze fikricha, Afrig' o'zining eng qadimgi siyovushiyalar sulolasiga mansubligini ko'rsatish uchun shunday tamg'ani qabul qilgan bo'lishi mumkin deb hisoblaydi [7, C.95] .

Xorazm davlatida qadimgi davrdan ilk oʻrta asrlarda boʻlgan jarayonda hukmron boʻlgan sulolalar faoliyatida davomiylik kuzatiladi. Mil.avv.II asrning oxirida yuedjilar sulolasiga mansub sulolaning tangʻasi Vazamar (Afrigʻ) tangasi ham qoʻyilgan.

Natijalar. Afrigʻiylar sulolasiga oid hukmdorlarni “shoh” unvoni bilan atashgan. Bu tadqiqotchilar tomonidan numizmatik manbalarni oʻqish orqali ilgari surilgan. V asrning ikkinchi yarmidan boshlab, tangalarda yozuvlarning tartibi oʻzgargan. Dastlab unvon, keyin shohning ismi yozilgan. Shoh unvonini yozishda ham oʻzgarishlar kuzatilgan. Ularda “MRʻY MLK” tarzda berilgan [8, C.82-85]. U “shohlar shohi” yoki “xoʻjayin shoh (gospodin sar) [9, C.97] ” degan maʼnolarni bergan. Shohlarning bunday unvoni tangalarda VIII asrning ikkinchi yarmigacha davom etgan. Arab yozma manbalari shohlarga nisbatan “Xorazmshoh” unvoni ishlatilgan. E.V.Rtveladze Xorazm davlati hukmdorlariga nisbatan “shoh” unvonining ishlatilishini III asr bilan bogʻlaydi va bunda sosoniylarning taʼsiri boʻlishi mumkin deb koʻrsatadi, shu bilan birga oromiylarning unvoni bilan ham bogʻliq boʻlgan boʻlishi mumkin deb hisoblaydi.

Afrigʻiylar sulolasiga oid shohlarining ismlari Abu Rayxon Beruniy maʼlumotlari va tangalar asosida aniqlangan. Tangalar shohlarning ismlari aniq yozilib, bu yozuv qadimgi Xorazm yozuvida yozilgan. Shohlarning hukmronlik davrlari koʻrsatilmagan. Abu Rayxon Beruniy asarida esa, bu ismlar arab yozuvida va arab yoʻnalishida berilgan. Bu ham oʻz navbatida tadqiqot olib borishda murakkabliklarni vujudga keltiradi.

Tangalardagi yozuvlarni oʻqigan V.A.Livshich Abu Rayhon Beruniy asarlarida berilgan shohlarning ismi bilan toʻgʻri kelmaganligini aniqlagan.

Shu bilan birga Abu Rayxon Beruniy asarida shohlarning hukmronlik yillari keltirilmagan. Bu borada tadqiqot ishlarini olib borgan B.I.Vaynberg Xorazm vohasidan qadimgi va ilk oʻrta asrlarga oid yodgorliklardan topilgan tangalarni yozma manbalardagi maʼlumotlarni qiyosiy solishtirgan va tangalardagi tasvirlar, undagi yozuvlarni keng va chuqur tahlil qilgan. Tangalardagi tasvirlardagi oʻzgarishlar orqali ularni klassifikatsiya qilgan va davriy ketma-ketma ketlikda bayon qilgan [10.C.147].

Abu Rayxon Beruniy asarida milodiy VII asrgacha Xorazmda hukmronlik qilgan sulola vakillari bayon qilingan. Asarda quyidagicha berilgan: “Paygʻambar alayhissalom kelgan vaqtlarida Xorazm shohlaridan Arsamuh ibn Buzgar ibn Xamgariy ibn Shaush ibn Saxr ibn Azkajavar ibn Askajamuk ibn Saxxasak ibn Bagʻra ibn Afrigʻ podshoh edi.” [11, B.69] Demak, arab bosqiniga qadar Argʻiylar sulolasi vakili Arsamuhning hukmron boʻlgan degan hulosaga kelamiz.

Arablar bosqinidan keyin esa, Askajamukni hukmdor qilib ketganligini koʻramiz. Afrigʻiylar sulolasi shohlari hukmronligining ketma-ketligi va xronologiyasini mavjud manbalar asosida E.V.Rtveladze tomonidan ham tahlil qilingan [12, 96-100].

E.V.Rtveladze “Afrig” ismining tangalarda uchramasligi ko‘rsatadi. S.P.Tolstov tomonidan Ermitajda saqlanayotgan kamyob tangalarning birida Afrig‘ so‘zini (‘pryk) tarzda o‘qiganligi ilova qilib, bu tangadagi so‘zni V.A.Livshis, B.I.Vaynberg va E.V.Rtveladze “Bivasar”, ya’ni (bwrsr) tarzda o‘qishganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga Afrig‘ bilan Vazamar hukmronligi davri bir xil vaqtga to‘g‘ri kelishini asoslashgan. B.I.Vaynberg uning hukmronlik davriga aniqlik kiritib, III asrning oxirgi choragi va IV asrning boshlari deb ko‘rsatgan.

E.V.Rtveladze Afrig‘iylar sulolasining ro‘yhati va ularning hukmronligi davrlari M.N.Fedorov va A.Kuznesov tomonidan ham tahlil qilinganligini ko‘rsatadi, lekin ularning tadqiqot ishlari yetarli asosga ega emasligini ko‘rsatib bergan.

Shu bilan birga V.A.Livshis va B.I.Vaynberg tomonidan ilgari surilgan afrig‘iylar sulolasi shohlarining ismlari ham o‘zgartirib berilgan degan fikrni bergan [13, C.97-98].

Akademik E.V.Rtveladze Afrig‘ni tangalarda berilgan Vazamar ekanligi asoslaydi va undan keyin taxtni egallagan uning o‘g‘li Bag‘ra bu tangalarda berilgan Bivasar bo‘lishi mumkin deb ko‘rsatadi. Shu asosda u ham Afrig‘iylar sulolasi shohlarining ro‘yxatini quyidagicha keltiradi:

Vazamar (Afrig‘) (III asrning so‘nggi choragi IV asrning boshi), Bugra (Bivasar), Kavi (Ravi), Sanbar, Rasht, Vir yoki Vik. Tutuxas, Ramik, Bravis yoki Fravik, Shram, Azkasvar I, Xusrav, Kapik, Shavshafan, Azkasvar II (VIII asrning oxiri)

V.I.Vaynberg qadimgi va ilk o‘rta asrlarga oid Xorazm vohasidan topilgan tangalar asosida ilk o‘rta asrlardagi Xorazm davlatining chegaralarini aniqlangan. Uning fikricha, Orolbo‘yi va Sirdaryoning quyi oqimi hududlari Xorazm davlatining tarkibiga kirmagan [14, C.94].

Mil.avv. II-I asrlarda Xorazmni yangi etnik qabila “Chjaovu uyining yuechji”lari bosib oladi va Xorazm vohasiga Yevkratid tetradraxmasiga o‘xshash tangalarni zarb qilganlar. Chjaovu uyining yuechjilari Zarafshon vohasi bo‘ylariga kelib, Samarqand, Buxoro va Xorazm hududlariga kelib o‘rnashganlar. Bu sulola vakillari milodiy I asrdan Xorazm vohasining siyosiy va iqtisodiy rivojlanishida muhim hissalarini qo‘shgan bo‘lishlari mumkin. Xuddi shu davrda qadimgi Xorazm davlati rivojlanish kuzatilgan.

Eski shaharlar qayta ta’mirlangan, yangi ko‘plab shaharlar bunyod etilgan. Shaharlarning qurilish uslublarida o‘zgarishlar kuzatilgan. Shu bilan birga milodiy I-II asrlarga oid Xorazm vohasidan mahalliy tangalar hozirgacha aniqlanmagan. S.P.Tolstov buni yuedjining beshta xonadonining birlashtirilishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin deb tushuntiradi. Yuedjilarning beshta qabilasi birlashgach, hukmdor qabila tomonidan tangalar zarb qilingan. Unga bo‘ysungan boshqa qabilalar tanga zarb qilish huquqiga ega bo‘lmagan bo‘lishi mumkin deb ko‘rsatgan [15, C.128].

Milodiy III asrga kelib, kushonlar imperiyasining zaiflashuvi bilan mahalliy hokimlarning kuchayib, alohida mustaqil davlat tuzishiga zamin yaratilgan. Bu hokimliklar yana o‘zlarining tangalarini zarb qila boshlagan bo‘lishlari mumkin. Shu davrda Xorazm vohasidan Vazamarning

mis tangalar deyarli hamma yodgorliklardan topilgan. Bu Vazamar davrida iqtisodiyotning taraqqiy etganligini ko'rsatadi [16, C.97]. Milodiy III asrga oid yodgorliklardan tangalarning topilishi tahlil qilgan tadqiqotchilar, Vazamar davrida butun Xorazm vohasi birlashtirilib, yagona davlatni tashkil qilgan degan fikrni bildiradilar.

Xorazmning sharqiy va g'arbiy tomondagi hududlardagi yodgorliklardan topilgan moddiy manbalarda ham o'xshashliklar kuzatilgan.

Abu Rayhon Beruniyning "nihoyat Kayxisrav naslidan Afrig' taxtni egalladi", deb yozib qoldirgan so'zlaridan ham yuedjilar sulolasi vakillari bilan kayxisrav sulolasi vakillari o'rtasida taxt uchun kurash uzoq davom etgan degan xulosaga kelishimiz mumkin. Afrig' taxtni uzoq kurashlar natijasida egallagan bo'lib, u Xorazmning ikki qismini –janubi- sharqiy va shimoli-g'arbiy tomonlarini birlashtira olgan. Uning vafotidan so'ng taxtga uning o'g'li Bag'ra (Bivasar) kelgan. Uning hukmronligi davrida Xorazm vohasida yana ikkita mustaqil davlat tashkil topgan. Amudaryoning o'ng qirg'og'i, ya'ni janubi-sharqiy tomondan Vazamardan keyingi davrga oid tangalar topilgan bo'lsa, aksincha, chap qirg'oqdan, ya'ni vohaning shimoli-g'arbiy tomondan bunday tangalar topilgan emas. Shu asosda tadqiqotchilar shunday xulosani ilgari suradilar.

Bunday tangalarning topilmaganligining ikkinchi taxminini ham ilgari suradilar, ya'ni chap qirg'oq Xorazm ko'chmanchi chorvadorlar bilan qo'shni bo'lib, ular bilan savdo- sotiq uchun tangalar zarur bo'lmagan. Ko'chmanchi chorvadorlar bilan natural holda tovar ayirboshlash bo'lgan deb asoslashadi. Lekin bu faraz haqiqatdan uzoq, chunki u hududlardan xam ko'plab dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanadigan tub aholi yashgan, turmush kechirgan va tabiiy ravishda ular o'rtasida ayirboshlashni tangasiz amalga oshirish mumkin bo'lmagan bo'lishi mumkin. Shu jihatini e'tiborga olib bizningcha, u hududning ajralib mustaqil davlat tuzganligi ehtimolga yaqin deb hisoblaymiz.

Tangalarda aks ettirilgan tamg'alari asosida afrig'iylarning hukmronligini davrini aniqlashga harakat qilingan. V.I.Vaynberg tangalarni guruhlariga va turlarga ajratib, boshqa hududlardan topilgan tangalarga qiyosiy solishtirgan holda tahlil qilgan, lekin bunda ham ba'zi tangalarning davrini tahminiy keltirgan.

Tangalardagi tasvirlarni va tamg'alarni solishtirish orqali sulola vakillarining ketma ketligini ko'rsatgan [17, C.280] . Olima tomonidan olib borilgan bu tadqiqot ishlarida kuchli tahlil bo'lganligi va bundan keyin Xorazm vohasidagi tangalari keng tadqiqot doirasiga tortilmaganligi uchun biz tadqiqot ishimiz tahlilida ham asosan shu ishdan keng foydalanishni lozim deb topdik.

V.I.Vaynberg tangalarni turlarga ajratib, ularning 14 ta turini aniqlagan, ularning tashqi ko'rinishi deyarli bir- biriga yaqin bo'lganligini asoslagan. Ulardagi o'zgarishlarni bir sulolaga mansub, turli xonadon vakillariga tegishli degan xulosani bergan.

Vazamar ismi qayd qilingan tangalarda, hukmdorning toji burgut boshiga o'xshatib ishlatilgan. Shu bilan birga boshqa mis tangalarda o'tirgan ikki o'rkachli tuya shaklida va tamg'asida ham biroz o'zgarishlar kuzatilgan. B.I.Vaynberg bu tangani T7 deb belgilangan. Unda toj ikki o'rkachli tuya shaklida bo'lishi bilan birga, undagi tamg'a ham o'zgargan, ya'ni xochsimon tarzda bo'lib, uning uch qismi qayilib ishlangan. Bunday mis tangalar juda topilganligi, qisqa muddat faoliyatda bo'lgan bo'lishi mumkinligini inobatga olib, Vazamar hukmronligidan keyin ma'lum bir muddat boshqa xonadon vakili hokimiyat tepasiga kelgan bo'lishi mumkin degan g'oyani ilgari surgan. Uning xronologik davrini ham III asrning oxiri – IV asrning boshlari bo'lishi mumkin deb ko'rsatadi. Tanga Xorazmda hukmron bo'lgan sulolalarning tangalarga o'xshash emasligini ham qayd qilishgan.

Bu fikrni Afrig'ning o'g'li hokimiyat tepasiga kelgach, Xorazm davlatining yana ikki qismga bo'linib ketganligi bilan ham asoslashimiz mumkin. Tangalardagi bunday o'zgarishlar bizning fikrimizcha, hududga bosqinchilarning bostirib kirib, ma'lum bir vaqt hukmron bo'lganligini ham ko'rsatadi. Buni quyidagi ma'lumotlar bilan ham asoslash mumkin: Arxeolog V.N.Yagodin tomonidan uch qismi qayrilgan xochsimon tamg'a G'ovur qal'a dahmasidagi ostodonlardan topilgan, bu yerdan topilgan sopol idishlar xioniylarnikiga o'xshash bo'lgan va Yu.A.Rapoport tomonidan Ustyurtda joylashgan Chashtepadagi xochsimon shaklda qurilgan mozorning o'rganilishi, bu materiallarning quyi Sirdaryo bo'yidagi moddiy madaniyatlarga o'xshashligini inobatga olib, bu tangani xioniylar bilan bog'lash mumkin. Xioniylarning hududda ma'lum bir davr hukmronligidan keyin Afrig'iylar sulolasi yana davlatda o'z hukmronligini mustahkamlagan bo'lishlari ehtimoli kuchli. B.I.Vaynberg tangalarni tahlil qilganda turli xil shaklda ishlangan Vazamar tangalari va B,V,G guruhlariga kiritilgan tangalardagi tamg'alarning bir xilligi bu sulola vakillarining uzoq vaqt humron bo'lgan bo'lishi mumkin degan g'oyani ilgari surgan.

Vazamar nomi bilan bog'liq mis tangalarning Kunya -Uaz qal'asida Shopur I tangalari bilan bir joydan va bir qatlamdan topilishi tangalarni aniq xronologiya berishga imkon bergan. Tadqiqotchilar Vazamar Shopur I bilan deyarli bir vaqtda hukmron bo'lgan degan g'oyani ilgari surganlar. Vazamar hukmronligidan keyingi davrga oid tangalar Bivasar tangalari bo'lib, unda shoh Shopur II tojiga o'xshash tojda aks ettirilgan. Yunon yozuvlar buzilgan holda berilgan.

V-VI asrda eftalitlarning tangalarida hukmdorlar soqolsiz aks ettirilgan va podshoning chap tomoni orqasida tamg'a qo'yilgan. Bunday tangalar eftalitlarda, kushonlarda va Xorazm tangalarida ham uchraydi.

Xulosa. Dingiljidan topilgan tangada va nomsiz shoh tangalardagi tasvirda shohning qulog'idan yonog'i bo'ylab yelkasigacha tushub turgan soch yoki tojining biror qismi tasvirlangan. Boshqa hech bir tangada bunday tasvir uchramaydi.

Turk hoqonligi davriga oid siyosiy tarix haqida numizmatika ma'lumot bermaydi, lekin V.I.Vaynberg fikricha, Xorazmda zarb qilingan yangi ideogramma MR`Y MLKning paydo bo'lishi yangi siyosiy jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan bo'lishi mumkin degan g'oyani beradi. VII asrga kelib, pul islohoti o'tkazilgan bo'lishi mumkin, chunki shu davrdan juda kichik mis tangalar o'rniga yirikroq kumush tangalar shakliga yaqin mis tangalar zarb qilingan.

VIII asr davomida Xorazmda uchta mustaqil hokimlik bo'lgan: Janubiy Xorazm, Kerder va Gurganj. Arablar bosib olgandan keyin Gurganj arabning asosiy qarorgohiga aylangan. Uning siyosiy mavqey oshgan. 995 yilda xorazmshohlar sulolasi hukmronligi tugatilgan va Gurganj poytaxtga aylanadi.

Xorazm Arab xalifaligi tarkibiga kirgach, kumush tangalarning sifati yomonlashgan va vazni kamaygan, bu arablarning puli - dirhamga yaqinlashtirgan bo'lishlari mumkin. Bunday jarayon butun O'rta Osiyoda davom etgan.

Afrig'iylar sulolasi tarixini tadqiq qilganda tadqiqotchilar ko'proq arxeologik ma'lumotlar va numizmatik manbalarga asoslanganlar. Bu bilan Afrig'iylar sulolasining hukmronligi davri, shohlarning aniq ismlari, bu davrdagi siyosiy jarayonlarga oydinlik kiritilgan. Xorazm tarixining eng munozarali va muammoli davri bo'lgan Afrig'iylar sulolasi tarixini yanada chuqur va keng tahlil qilish tarix fanining dolzarb masalalaridan biriga aylangan.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston tarixi (Xorazm tarixi). XI jild. – B. 140.
2. Беруний Абу Райхон. Танланган асарлар. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар (Осор ал-бокия). – В. 152.
3. Беруний Абу Райхон. Танланган асарлар. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар (Осор ал-бокия). – Б. 69.
4. Вайнберг Б.И. Монеты древнего Хорезма. – М. “Наука”. 1977. – С. 81.
5. Вайнберг Б.И. Монеты древнего Хорезма... – С. 280.
6. Вайнберг Б.И. Монеты древнего Хорезма... – С. 147.
7. Вайнберг Б.И. Монеты древнего Хорезма... – С. 82-85.
8. Вайнберг Б.И. Монеты древнего Хорезма... – С. 15.
9. Вайнберг Б.И. Монеты древнего Хорезма... – С. 97.
10. Вайнберг Б.И. Монеты древнего Хорезма... – С.35.
11. Вайнберг Б.И. Монеты древнего Хорезма... – С.35.
12. Вайнберг Б.И. Монеты древнего Хорезма... – С.94.
13. Алимов Р., Ртваладзе Э. Ўзбекистон Миллий банки коллекциясидан 100 танга. – Т., 1997. – С.97.

14. Ртвеладзе Э.В. Хронология и последовательность правления царей из династии Вазармаров (Афригидов). В кн. Хорезм в истории государственности. – С. 96-100.
15. Толстов С.П. Монеты шахов древнего Хорезма и древнехорезмийский алфавит // Вестник древней истории. – № 4 (5). 1938 – С. 128.
16. Толстов С.П. По следам древнехорезмской цивилизации. – М.: “Изд-Во Ан СССР”, 1948. – С.191-192.
17. Ртвеладзе Э.В. Хорезм в истории государственности Узбекистана. – Ташкент: “Ўзбекистон файласуфлар жамияти”, 2013. – С. 98 - 97.